

2025-YIL,
MAXSUS
SON.
(№ 003)



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA IQTISODIY TARMOQLARDA ALOHIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY YONDASHUVLARI

Qodirov Jasurbek Sharofitdinovich

“O‘zbekiston Temir yo‘llari” AJ, Moliya departamenti boshlig‘i, i.f.f.d. (PhD)

Email: Bek-maf@mail.ru

ORCID: 0009-0003-1710-7648

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss7/729

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida iqtisodiy tarmoqlarda alohida hisob siyosatini shakllantirishning uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda DXSh loyihalarining moliyaviy, tashkiliy va huquqiy jihatlari tizimli tarzda ko‘rib chiqilib, alohida hisob siyosati buxgalteriya hujjatidan tashqari boshqaruv va shaffoflikni ta‘minlovchi strategik instrument sifatida talqin etilgan. Muallif tomonidan O‘zbekiston va xalqaro tajribalar (Buyuk Britaniya, IMF, IPSAS, IFRS) asosida qiyosiy, tizimli va analitik yondashuvlar qo‘llanilgan. Natijalar DXSh loyihalarida hisob siyosatini yagona shablon asosida emas, balki tarmoqqa xos risk, foyda, xizmat muddati va investitsiya hajmiga ko‘ra moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada ishlab chiqilgan model uchta ustuvor yo‘nalishga asoslangan: monitoring va audit, tarmoq xususiyatlari, hamda moliyaviy shaffoflik. Ushbu model DXSh loyihalarining fiskal shaffofligini oshirish, investitsion risklarni kamaytirish va iqtisodiy boshqaruv sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: hisob siyosati, DXSh, iqtisodiy tarmoqlar, risk va foyda taqsimoti, moliyaviy shaffoflik, monitoring va audit, tarmoq xususiyatlari, IFRS va IPSAS.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ОТДЕЛЬНОЙ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ В СЕКТОРАХ ЭКОНОМИКИ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА

Кодиров Джасурбек Шарофитдинович

Начальник финансового отдела АО «Узбекистон темир йуллари», к.э.н. (PhD)

Аннотация

В статье анализируются методические подходы к формированию отдельной учетной политики в секторах экономики, основанных на государственно-частном партнерстве (ГЧП). В исследовании системно рассматриваются финансовые, организационные и правовые аспекты проектов ГЧП, а отдельная учетная политика рассматривается как стратегический инструмент, обеспечивающий управление и прозрачность, помимо бухгалтерских документов. Автор использует сравнительный, системный и аналитический подходы, основанные на узбекском и международном опыте (Великобритания, МВФ, МСФООС, МСФО). Результаты показывают необходимость адаптации учетной политики в проектах ГЧП не по единому шаблону, а с учетом отраслевых рисков, прибыли, срока службы и объема инвестиций. Разработанная в статье модель основана на трех приоритетных направлениях: мониторинг и аудит, отраслевые

особенности и финансовая прозрачность. Данная модель служит повышению фискальной прозрачности проектов ГЧП, снижению инвестиционных рисков и повышению качества управления экономикой.

Ключевые слова: учетная политика, ГЧП, сектора экономики, распределение рисков и выгод, финансовая прозрачность, мониторинг и аудит, отраслевые особенности, МСФО и МСФООС.

METHODOLOGICAL APPROACHES TO FORMING A SEPARATE ACCOUNTING POLICY IN ECONOMIC SECTORS BASED ON PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP

Kodirov Jasurbek Sharofitdinovich

Head of the Finance Department “Uzbekistan Railways” JSC, PhD

Abstract

This article analyzes methodological approaches to the formation of a separate accounting policy in economic sectors based on public-private partnerships (PPPs). The study systematically examines the financial, organizational and legal aspects of PPP projects, and interprets the separate accounting policy as a strategic instrument that ensures management and transparency in addition to accounting documents. The author uses comparative, systematic and analytical approaches based on Uzbek and international experience (Great Britain, IMF, IPSAS, IFRS). The results show the need to adapt accounting policies in PPP projects not based on a single template, but based on industry-specific risk, profit, service life and investment volume. The model developed in the article is based on three priority areas: monitoring and audit, industry characteristics, and financial transparency. This model serves to increase fiscal transparency of PPP projects, reduce investment risks and improve the quality of economic management.

Keywords: accounting policy, PPP, economic sectors, risk and benefit sharing, financial transparency, monitoring and audit, sector characteristics, IFRS and IPSAS.

Kirish

Bugungi global iqtisodiy sharoitda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik hayotiy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi Qonuni davlat-xususiy sheriklik (DXSh) sohasidagi huquqiy asosni belgilaydi va ushbu mexanizm orqali infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar va boshqa sohalarda xususiy sarmoyalarni jalb qilish, davlat resurslarini samarali ishlatish imkoniyatlarini yaratadi¹.

Iqtisodiy tarmoqlarda DXSh asosida alohida hisob siyosatini shakllantirish asosiy muammoning muhim jihatlaridan biridir. Chunki tarmoqlarga xos xususiyatlarni — infratuzilma operatsiyalari, xizmat ko'rsatish xarajatlari, xavflar va foyda tahlillari — to'liq aks ettirish orqali shaffoflikni oshirish va moliyaviy hisobotni yaxshilash mumkin. Shu kontekstda, alohida hisob siyosatini uslubiy jihatdan aniqlash, unga qo'yiladigan talablar va metodologik yondashuvlar muhim o'rin egallaydi.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, “DXSh loyihasi iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidir.”² Bunday yondashuv alohida hisob siyosatini shakllantirishni tarmoqqa moslab, analogiya qilinadigan alohida modul sifatida emas, balki kompleks boshqaruv tizimi ichida rejalashtirishni taqozo etadi.

¹ <https://lex.uz/docs/-4329270>

² <https://lex.uz/docs/-4329270>

Shuning uchun mazkur ishda quyidagi jihatlar muhim bo‘ladi:

- iqtisodiy tarmoqlarda DXSh sharoitida alohida hisob siyosatini shakllantirish mezonlari va usullari;
- alohida hisob siyosati bilan boshqaruv, hisobdorlik va hisobotlilikni ta‘minlash munosabati;
- tarmoqqa xos risklar va investitsiya xususiyatlarining alohida hisob siyosatiga ta‘siri;
- uslubiy yondashuvlar: qanday metodologiyalar, normativ hujjatlar va hisobot rahbarlari ishlab chiqilishi mumkinligi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Adabiyotlarda DXSh tizimlari ko‘plab jihatdan tahlil qilingan. Xususan: ularning tashkil etilishi, moliyaviy va hisob-hisobot jihatidan murakkabligi, xavf va foyda taqsimoti, alohida hisob siyosati bilan bog‘liq uslubiy muammolar. Masalan, Grimsey va Lewis lar (2002) “Davlat-xususiy sheriklik uchun buxgalteriya hisobi” nomli maqolada DXSh loyihalari “...uzoq muddatli shartnoma munosabatlari, moliyalashtirish, pul oqimlari, hisobot va xavf taqsimoti jihatidan murakkab” deb ta‘kidlashgan.

Shuningdek, yana bir tadqiqotida, A.M.Navarro (2005) “DXSh loyihalarida aktivlar, majburiyatlar va hisob siyosati jihatidan davlat sektorining qanday pozitsiyani olishi masalasi ko‘rib chiqilgan. Hukumat loyiha mahsulotlarining xaridori bo‘lgan va loyiha xavflarining katta qismini o‘z zimmasiga olgan DXShlarda iqtisodiy mulkni davlat bo‘yicha tasniflash oqilona moliyaviy boshqaruv va qarz barqarorligini tahlil qilishga hissa qo‘shadi. Agar ilgari hukumatlar kelajakdagi xizmat to‘lovlarni asosan tovarlar va xizmatlarga sarflanadigan xarajatlar sifatida xarajatlarning yig‘ilishi sifatida tan olgan bo‘lsalar, endi ular DXSh aktivlarini sotib olishni qayd etishlari va kelajakdagi to‘lovlarning katta qismini hukumat balansida haqiqiy majburiyatlar sifatida tan olishlari kerak bo‘ladi.” deya ta‘kidlagan.

Shu bilan birga, T.Narbaev (2022) adabiyotlarni meta-tahlil qilish natijasida DXSh tadqiqotlarining o‘zaro bog‘liqligi, konseptual kengligi ham aniqlangan. “Davlat-xususiy sheriklik adabiyotlari sharhlarining meta-tahlili” nomli maqolada bu sohadagi sharh maqolalari ro‘yxati va asosiy yo‘nalishlar ko‘rsatilgan. “Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, adabiyot to‘rtta evolyutsiya bosqichidan bo‘lgan: boshlang‘ich, shakllanish, o‘sishtan tortib kengayishgacha. Kelajakdagi sharh ishlari ko‘proq empirik tadqiqotlarni o‘z ichiga olishi va DXSh tadqiqotlarining amaliy ahamiyatini o‘rganishi kerak. Istiqbolli sohalar DXSh boshqaruvi, murakkablik, o‘tkazmadan keyingi bosqichlar, barqarorlik bilan bog‘liq muammolar va DXSh orqali ko‘chmas mulkni rivojlantirishdir. Qurilish muhandisligi va boshqaruvi, mulkni boshqarish, davlat boshqaruvi va transport sohasidagi DXSh tadqiqotchilari sohaning o‘ziga xosligini, uning hozirda qanday shakllanayotganini, istiqbolli sohalarni va adabiyot qayerda rivojlanayotganini tushunishdan foyda ko‘rishadi.”

Heald va Georgiou (2011) iqtisodchi olimlar esa o‘z tadqiqotlarida, “Kim aktivni boshqaradi yoki kim xavfni o‘z zimmasiga oladi?” degan masalada to‘xtalib o‘tishgan. Ya‘ni tadqiqotlarida “DXSh buxgalteriya amaliyoti va unga bog‘liq moliyaviy hisob va hisobot talablari baholashgan. DXShlarni hisobga olish ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishi, ulardan biri DXShlar davlat sektori mijozi yoki xususiy sektor operatorining balansida asosiy vositalar sifatida hisobga olinmasligi amaliyoti ekanligini ifodalashgan. DXShlarni hisobga olish milliy buxgalteriya amaliyotidan Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) o‘tish davrida muhim ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida to‘xtalishgan. Ya‘ni Buyuk Britaniyaning GAAP

standartlariga muvofiq, mijoz ham, operator ham buxgalteriya hisobi asosiy vositani o‘z balansida tan olishi kerak bo‘lgan tomonni aniqlash uchun tomonlar o‘rtasida xavf va mukofotlarni taqsimlashning lizing standartlaridan tanish bo‘lgan asoslarini qo‘llashgan. Buyuk Britaniyaning GAAP va IFRSga muvofiq, buxgalteriya siyosati tanlovlari mijoz uchun hukumat nazorati tizimlari va operator uchun taqsimlanadigan foyda profili va soliqqa tortish uchun oqibatlariga kuchli ta'sir qilishini ko‘rib chiqishgan.

Adabiyotlarda DXSh loyihalarida hisobot va alohida hisob siyosatida duch kelinadigan cheklolar ko‘p qayd etilgan. Bularan Sheppard va Beck (2023) iqtisodchilar tomonidan o‘zlarining tadqiqotlarida, “Irlandiyaning DXSh bo‘linmasi sifatida ishlaydigan Milliy Taraqqiyot Moliya Agentligi (MTMA) Irlandiya DXSh xaridlarining shaffofligi va hisobdorligiga qanday ta'sir ko‘rsatganligi ko‘rib chiqishgan. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, DXSh agentliklarini boshqarish bo‘yicha avvalgi ba'zi tanqidiy tadqiqotlardan farq qiladi, chunki ular DXSh agentligi shaffofligining ba'zi jihatlariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin, shu bilan birga tanlov jarayoni shaffofligi kabi boshqa jihatlarni kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlashdi. Shunga qaramay, ular DXSh xaridlariga yondashuv Irlandiya DXSh ning uzoq muddatli barqarorligiga zarar yetkazishi mumkinligini taxmin qilishdi. Irlandiya misolidan foydalanib, ularning tadqiqotlari bunday institutsional tuzilmalarning DXSh xaridlarining shaffofligi va hisobdorligiga ta'sirini tushunishga hissa qo‘shishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot quyidagi **uslubiy yondashuvlar** asosida olib borilgan:

Sistemali yondashuv. DXSh loyihasi davlat, xususiy sektor va tarmoq tuzilmalarining o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida qaraladi. Hisob siyosatini shakllantirishda ushbu tizimning barcha elementlari — risk, investitsiya, xizmat muddati, foyda taqsimoti — bir butun sifatida tahlil qilinadi.

Qiyosiy (komparativ) yondashuv O‘zbekiston va Buyuk Britaniya tajribalari solishtirildi. Natijada xalqaro standartlar (IFRS va IPSAS) bilan milliy normativlar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, milliy amaliyotga mos takliflar ishlab chiqildi.

Tahliliy yondashuv. DXSh loyihalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari, investitsiya oqimlari, aktiv/majburiyat balansi va foyda taqsimoti bo‘yicha miqdoriy tahlillar olib borildi. Bu orqali hisob siyosati modellarining samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiruvchi, infratuzilmani rivojlantiruvchi va davlat moliyasiga yukni kamaytiruvchi samarali mexanizm sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni (2019-yil 10-may, O‘RQ–537-son) bu borada asosiy huquqiy platformani yaratdi. Unda DXSh “davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik, investitsiya jalb etish, risk va foyda taqsimoti asosidagi iqtisodiy mexanizm” sifatida belgilangan.

Shunga qaramay, iqtisodiy tarmoqlarda DXShni hisob siyosati nuqtayi nazaridan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mavjud buxgalteriya yondashuvlari DXShning o‘ziga xos iqtisodiy mohiyatini to‘liq ifodalab bera olmaydi. Xususan, loyihaning davlat va xususiy segmentlari o‘rtasida moliyaviy risk, majburiyat va daromadlarni aniq ajratish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Adabiyotlar tahlili va amaliy holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, DXSh asosida hisob siyosatini shakllantirishda quyidagi asosiy omillar e‘tiborga olinishi zarur:

1. D.Heald va G.Georgiou (2011) “Risk-foйда taqsimoti – kimning zimmasiga asosiy risk yuklatilsa, foyda taqsimoti ham shu asosda belgilanadi”.

2. M.S.Sosa va M.M.Garcia-Escribano (2011) “Aktiv-majburiyat mezonlari – DXShda yaratilgan aktiv kimning balansida bo’lishi kerakligi, uni boshqaruvchi tomon va investitsiya shartlari asosida aniqlanadi”.

3. P.Andon (2012) “Shartnoma siklining bosqichlari – tenderdan to ekspluatatsiyagacha bo’lgan jarayonda hisob siyosatini moslashtirish zarur”.

4. Normativ-huquqiy asoslar – milliy buxgalteriya standartlarini (NBS) xalqaro IFRS 12 va IPSAS 32 standartlariga uyg’unlashtirish hisob siyosatini zamonaviylashtirish imkonini beradi.

Natijalar shuni ko’rsatadiki, hisob siyosatini yagona shablon asosida emas, balki har bir tarmoq xususiyatidan kelib chiqib ishlab chiqish zarur. Masalan, energetika, transport, kommunal xizmatlar va sog’liqni saqlash tarmoqlarida investitsiya sikli, risk turi va daromad mexanizmi tubdan farqlanadi.

O’zbekistonda DXSh asosida amalga oshirilayotgan loyihalar (masalan, “Toshkent shahrida issiqlik energiyasini modernizatsiya qilish”, “Qarshi suv ta’minoti tizimini DXSh asosida boshqarish”) amaliy jihatdan quyidagi holatni ko’rsatadi:

- hisob siyosati har bir loyiha uchun turlicha talqin etilmoqda, yagona metodologik ko’rsatma mavjud emas;
- moliyaviy hisobotlarda aktivlar, majburiyatlar va investitsiyalarni ajratish mezonlari aniq belgilab qo’yilmagan;
- audit va monitoring tizimlari xalqaro amaliyot bilan to’liq uyg’un emas, natijada shaffoflik darajasi past.

Shunday qilib, iqtisodiy tarmoqlarda DXSh mexanizmi joriy etilayotgan bo’lsa-da, bu jarayonni qo’llab-quvvatlovchi uslubiy va normativ asoslar hali to’liq shakllanmagan.

1-jadval

DXSh loyihalarining sektor bo’yicha taqsimoti³

Sektor	Taxminiy qiymati .AQSh dollar(mlrd.AQSh dollar)	Ulushi (%)
Energetika	28.8 mlrd	93 %
Kommunal xizmatlar (utilities)	1.5 mlrd	5 %
Ta’lim	0.144 mlrd	0.8 %
Transport & infratuzilma (2025-2030 reja) ⁴	30.2 mlrd yangi loyihalar	—

Ma’lumotlarga ko’ra, hozirgi vaqtda O’zbekistonda DXSh loyihalarida energetika sektori ustun pozitsiyada. Transport va infratuzilma sektorida esa 2025-2030 yillarga rejalashtirilgan loyihalar mavjud bo’lib, bu tarmoq bo’yicha alohida hisob siyosatini shakllantirish ehtiyojini oshiradi. Tarmoqqa xos hisobot yuritish (masalan, transport tarmog’ida aktivlar, majburiyatlar, daromad-xarajatlar) haqida uslubiy yondashuvlar lozim.

³ <https://kun.uz/en/news/2025/07/02/imf-uzbekistans-public-private-partnerships-could-burden-future-budgets>

⁴ https://asiantransportobservatory.org/documents/368/Uzbekistan_20250814.pdf

2025-yil ma’lumotlariga ko’ra, O’zbekistonda DXSh loyihalarining jami portfeli taxminan 31 mlrd.AQSh dollarga tengligi qayd etilgan.

Shundan, transport sektori DXSh loyihalarida hali kichik ulushga ega: masalan, yo’l bo’yicha DXSh hali imzolangan emas, ammo 2 ta yo’l DXSh loyihasi “Toshkent-Andijon” va “Toshkent-Samarqand” yo’nalishida rejalashtirilgan⁵. Ushbu diagramma orqali ko’rinadiki: investitsiya oqimlari ko’proq energetika va elektr tarmoqlari yo’nalishida, transportning DXSh ulushi keyinga qoldirilgan.

Shu bilan birgalikda, tahlil natijalari shuni ko’rsatdiki, DXSh sharoitida alohida hisob siyosatini shakllantirishda quyidagi uslubiy yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Integratsion yondashuv – davlat va xususiy sektor hisob tizimlarini yagona axborot platformasida birlashtirish;


Risk asosida modellashtirish – investitsion, operatsion va moliyaviy risklarni aniqlash hamda ularni hisob siyosati parametrlariga kiritish;

Bosqichma-bosqich metodologiya – loyihaning hayot siklining har bir bosqichida (rejalashtirish, qurilish, ekspluatatsiya, topshirish) hisob siyosatini qayta ko’rib chiqish;

Shaffoflik tamoyili – hisobotlarda risk, xarajat va foydani ochiq tarzda ko’rsatish orqali ishonchlilikni ta’minlash.

Ushbu yondashuvlar orqali davlat va xususiy sektor o’rtasidagi moliyaviy oqimlar aniq ko’rinishda tahlil qilinadi, bu esa hisob siyosatini boshqaruv vositasi sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, O’zbekistonda DXSh tizimini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun alohida hisob siyosatini shakllantirishning yagona uslubiy modeli ishlab chiqilishi zarur.



1-rasm. Alohida hisob siyosatini shakllantirishning yagona uslubiy modeli⁶

Shunday qilib, alohida hisob siyosatini shakllantirishning ilmiy-uslubiy yondashuvlari nafaqat buxgalteriya tizimining takomillashuviga, balki mamlakatning iqtisodiy boshqaruv sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Model DXSh sharoitida iqtisodiy tarmoqlar uchun alohida hisob siyosatini yaratishning tizimli yondashuvini ifodalaydi. U uchta ustuvor yo’nalishga asoslanadi:

1. Monitoring va audit – tizim samaradorligini ta’minlovchi nazorat mexanizmi.

⁵ <https://development.asia/insight/advancing-uzbekistans-sustainable-development-ppp-road-projects>

⁶ Muallif ishlanmasi

2. Tarmoq xususiyatlari – har bir sohaning (energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va boshqalar) moliyaviy-texnik jihatlarini.

3. Moliyaviy shaffoflik – davlat va xususiy sektor o‘rtasida ochiq hisobot va javobgarlik tizimi.

Bu model Andon (2012) tomonidan ta’kidlanganidek, “hisob siyosati va hisobdorlik tizimi davlat-xususiy sheriklikdagi muvozanatni ta’minlovchi vosita” sifatida talqin qilinadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida iqtisodiyot tarmoqlarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, xususiy sarmoyalarni jalb etish va infratuzilmani modernizatsiya qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonning muvaffaqiyati alohida hisob siyosatini ilmiy asosda shakllantirishga bevosita bog‘liqdir. Alohida hisob siyosati DXSh sharoitida nafaqat buxgalteriya jarayonlarini tartibga soluvchi hujjat, balki boshqaruv, shaffoflik va javobgarlik mexanizmi sifatida qaralishi zarur.

O‘zbekiston iqtisodiy tarmoqlarida amalga oshirilayotgan DXSh loyihalarida (energetika, transport, suv ta’minoti, sog‘liqni saqlash va boshqalar) hisob siyosatini shakllantirishda yagona metodologik yondashuv mavjud emas. Bu holat loyihalar o‘rtasida solishtirma tahlil yuritishni murakkablashtiradi. Hisob siyosatini shakllantirishda sistemali yondashuv (tarmoq, davlat va xususiy manfaatlarining muvozanati), qiyosiy yondashuv (xalqaro tajribalar bilan solishtirish) va analitik yondashuv (moliyaviy oqimlarni tahlil qilish) samarali deb topildi. Alohida hisob siyosatini ishlab chiqish orqali iqtisodiy tarmoqlarda moliyaviy nazorat, audit va samaradorlik monitoringini takomillashtirish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik asosida iqtisodiy tarmoqlarda alohida hisob siyosatini shakllantirish — bu faqat buxgalteriya hujjati emas, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshiruvchi strategik instrumentdir. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar iqtisodiy tarmoqlarda DXSh loyihalarining shaffofligini ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish, investitsion risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Grimsey, D., & Lewis, M. K. (2002, September). Accounting for public private partnerships. In Accounting Forum (Vol. 26, No. 3-4, pp. 245-270). Taylor & Francis.

2. Navarro, A. M. (2005). The treatment of public-private partnership assets in the GFSM 2001 framework. IMF Research Paper.

3. Narbaev, T. (2022). A meta-analysis of the public-private partnership literature reviews: exploring the identity of the field. International Journal of Strategic Property Management, 26(4), 318-331.

4. Heald, D., & Georgiou, G. (2011). The substance of accounting for public-private partnerships. Financial Accountability & Management, 27(2), 217-247.

5. Sheppard, G., & Beck, M. (2023). Transparency trade-offs in the operation of national Public Private Partnership units: The case of Ireland’s National Development Finance Agency. Journal of accounting and public policy, 42(4), 107111.

6. Sosa, M. S., & Garcia-Escribano, M. M. (2011). What is Driving Financial De-dollarization in Latin America? International Monetary Fund.

7. Andon, P. (2012). Accounting-related research in PPPs/PFIs: present contributions and future opportunities. Accounting, Auditing & Accountability Journal, 25(5), 876-924.